www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

YUSUF VA ZULAYXO DOSTONINING HAZORA NUSXASIDAGI MATNIY TAFOVUTLAR VA ULARNING ASAR SUJETIGA TA'SIRI

TEXTUAL DIFFERENCES IN THE HAZORA VERSION OF THE EPIC OF YUSUF AND ZULAIKHO AND THEIR INFLUENCE ON THE PLOT OF THE WORK

ТЕКСТУАЛНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В ХАЗОРСКОЙ ВЕРСИИ ПОСЛАНИЯ ЮСУФА И ЗУЛАЙХО И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СЮЖЕТ ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Oripov Jahongir Raupovich
Buxoro davlat universiteti O'zbek tili
va adabiyoti kafedrasi kabinet mudiri
www.jahongiroripov1202@gmail.com

Annatatsiya: Maqolada Durbekka nisbat berilgan "Yusuf va Zulayxo" dostonining Afg'onistonning Hazora viloyatida hijriy 1269-yilda (milodiy1853-yilda) Mirzo Izzatulloh Xoksor tomonidan ko'chirilgan qo'lyozma nusxasi va uni mavjud nashrlar bilan chog'ishtirganda uchraydigan matning tafovutlari haqida so'z yuritiladi. Ushbu matniy tafofutlarning asar sujetiga bo'lgan ta'siri misollar asosida atroflicha dalillanadi. Mazkur qo'lyozma bugunki kunda Buxoro san'at muzey-qo'riqxonasida 27891/11 inv. raqami ostida saqlib kelinmoqda. Ushbu doston 1915-yilda adabiyotshunos olim Sh. Sharafiddinov (Xurshid) tomonidan 1615-yilda Muhammad binni Said Mirzo Ahmad Buxoriy ko'chirgan nusxa asosida krill yozuviga ko'chirilgan va ikki marta nashr etilgan. Maqolada Hazora nusxasining mavjud nashrlardan farqlanuvchi ayrim ma'noga oid matniy xususiyatlari tasnif va tahlillar asosida ko'rsatib beriladi. Hazora nusxasi asosida dostondagi unifikatsiyon va ma'noviy farqliklar shuningdek, sujet bilan bog'liq tafovutlar qiyosiy aspektda aniqlashtiriladi. Hazora nusxasining muhim ilmiy qimmati dalillanadi.

Annotation: The article talks about the manuscript copy of the epic "Yusuf and Zulaikha" attributed to Durbek, copied by Mirza Izzatullah Khoksar in 1269 AH (1853 AD) in the Hazara region of Afghanistan and the differences in the text found when comparing it with existing editions is conducted. The influence of these textual differences on the subject of the work is proved in detail on the basis of examples.This manuscript is currently in Bukhara Art Museum-Reserve number 27891/11 inv.stored under no. This epic was written in 1915 by literary scholar. It was copied by Sh.Sharafiddinov(Khurshid) in 1615 on the basis of the copy copied by Muhammad binni Said Mirza Akhmad Bukhari and published twice. The textual features of the Hazora copy, different from the existing editions are shown based on classification and analysis. On the basi of the Hazara copy, unification and spiritual differences in the epic, as well as differences related to the subject are clarified in a comparative aspect.The important scientific value of the Hazara copy is proved.

Аннотация: В статье говорится о рукописной копии епоса "Юсуф и Зулейха" приписываемой Дурбеку переписанной Мирзой Иззатуллой Хоксаром 1269 году хиджры (1853 года нашей эры) в Хазарейском районе Афганистана а также об отличиях текста обнаруженных при сравнении его с существующими издания.Влияние этих текстовых различий на тему работы подробно доказывается на примерах. Данная рукопись в настоящее время находится в Бухарском художественном музее-заповеднике № 27891/11 инв. хранится под номером. Эту эпопею написал в 1915 году литературовед. Он был переписан Ш. Шарафиддиновым (Хуршидом) в 1615 году на основе копии, переписанной Мухаммадом бин Саидом Мирзой Ахмедом Бухари и опубликован дважды. На основе классификации и анализа показаны текстологические особенности хацорского списка, отличающиеся от существующих изданий.На основе хазарейского списка в

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

сравнительном аспекте выясняются унификация и духовные различия в эпосе, а также различия, связанные с сюжетом. Доказана важная научная ценность хазарского списка.

Kalit so‘zlar: Sujet, ma’noviy tafovutlar Durbek, “Yusuf va Zulayxo” dostoni, “Uch bulbul gulshani” Muhammad binni Said Mirzo Ahmad Buxoriy, Mirzo Izzatulloh Xoksor, Hazora nusxasi,.

Key words: Subject, spiritual differences Durbek, "Yusuf and Zulaikha" epic,“Uch bulbul gulshani” Mukhammad binni Said Mirza Akhmad Bukhari, Mirza Izzatullah Khoksar, copy of Hazara.

Ключевые слова: Сюжет, духовные различия Дурбека, эпоса “Юсуф и Зулайхо”,“Uch bulbul gulshani”, Мухаммад бинни Саид Мирза Ахмед Бухари, Мирза Иззатулла Хоксар, Хазарейская копия.

Shoir Durbek “Yusuf va Zulayxo” mavzuda O‘rta Osiyo turklari ichida eski o‘zbek tilida doston yozgan shoirdir. Ungacha o‘sha davr adabiyotida Yusuf qissasi haqida yozilgan forsiy dostonlar anchayin keng tarqalgan edi. Durbek esa turkiy tilda ham shunday doston yozsihni anchadan vaqtgacha niyat qilib keladi. Doston yozilgan vaqt - milodiy 1409-yil Balx qamali vaqtida esa u asosan Qur’oni Karim va qissas ul-anbiyo, payg‘ambarlar qissasini o‘qish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Adabiyotlarda Durbek qalamiga mansub dostonning 9ta qo‘lyozma nusxalari haqida ma’lumotlar uchraydi. Asarning biz so‘z yuritayotgan qo‘lyozma nusxasi bugungi kunda Buxoro san’at muzey-qo‘riqxonasida 27891/11 inv. raqami ostida saqlanadi. Qo‘lyozma jami 149 sahifadan iborat. Asar matni 91 bob, 2407 baytdan iborat. 1^a varaqda matn 11 qatorli qilib (boblar nomini va asosiy matnini qo‘shib hisoblaganda), 1^b varaqdan to 6^a varaqgacha 15 qatorli qilib, 6^b varaqdan 74^b varaqgacha 17 qatorli qilib ko‘chirilgan. So‘nggi 75^a varaq 6 qatorli doston matni va 8 qatorli kotib ilova qilgan kalafon qismidan iborat. Sahifalarga qizil siyoh bilan ikki qator qilib tortilgan chiziq bilan maxsus hoshiya chizilgan bo‘lib, matn shu hoshiya ichida yozilgan.

Shoir Yusuf faoliyatini boshlanishidan to oxirigacha batafsil tasvirlaydi. Dostonda ikkita sujet chizig‘i mavjud:

1. Ya’qub payg‘ambar – uning o‘g‘illari – Yusuf (a.s.) o‘rtasidagi ziddiyat.
2. Zulayho – Yusuf – Misr azizi o‘rtasidagi sujet chizigi.

Ikkala sujet ham ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim kabi tarkibiy qismlarga ega bo‘lib, mahorat bilan uyg‘unlashtirilgan, bir-birini to‘ldiradi va bir nuqtaga borib birlashadi. Yusuf – Ya’qub payg‘ambarning kichik o‘g‘li. Durbek bu obrazni, diniy va insoniy mavzuni uzviy bog‘lagan holda tasvirlaydi. Yusuf obrazi ko‘p jihatlari bilan Qur’oni karimdagi Yusufga yaqin va ayni paytda ba’zi jihatlari bilan farq ham qiladi. Yusufdagi ijobiy fazilatlar, insonga xos xususiyatlar, uning donoligi, insonparvarligi, xushmuomalaligi, vatanparvarligi, ota-onasiga nisbatan bo‘lgan farzandlik muhabbati kabilarda ko‘rinadi. Yusuf – go‘zallik timsoli. Otasining sevimli farzandi. Shu sabab ham akalari unga hasad qilishadi. Yusufni chohga tashlashadi. Qul qilib sotishadi, azoblarga giriftor etishadi. Keyinchalik Yusufning hayoti va taqdiri Misr xalqi hayoti bilan bog‘lanadi. U Zulayhoning tuhmatlariga chidaydi, zindon azobini boshdan kechiradi, o‘tkir muabbirligi-tushni ta’birlay olishi, zindon azobini tortish Misr xalqini ochlikdan xalos etishi, akalari bilan uchrashuvi, Zulayhoga uylanishi, akalarining gunohlarini kechirishi, otasi Ya’qub bilan uchrashishi, Misrni odillik bilan boshqarishi va boshqalar bilan xarakterlanadi. Asardagi muhim obrazlardan yana biri Zulayhodir. Zulayho-go‘zal va ayni paytda o‘tli ishq egasi. U Yusufni tushida ko‘rib, sevib qoladi. Mag‘rib shohi Taymus shoh qizi bo‘lgan Zulayho quyidagi qiyofaga ega:

Bir qizi bor edi mahi xovariy,
Oraziga shamsu qamar mushtariy.
Yuzi quyosh erdi, vale bezavol,
Barcha funun bobida sohibkamol.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

Hosili umri edi ul shohning,
Oti Zulayho edi ul mohning. [51-52]

Zulayho ishq dardiga mubtalo bo‘ladi. Dardi kundan-kun alangalanadi. Tushida Yusufning “Misr elida shahriyor” ekanligini bilgach, Misrga borishga ahd qildi, ota-onasi uni Misr Aziziga uzatishadi. Biroq Zulayhoning tushida aytilgan so‘zlar kelajak haqidagi bashorat edi. U Misr Aziziga turmushga chiqqan bo‘lsa ham, Yusuf ishqi bilan yashaydi. Zulayho Yusufni sotib oladi. Yusufga bo‘lgan munosabati oshkor bo‘lib, ayollarning malomatlariga qoladi. Yusufga tuhmat qilishga majbur bo‘ladi. Qiyinchiliklarni sabr bilan yengadi va oxir-oqibat Yusufga turmushga chiqadi. Yusuf va Zulayho Mishom va Farohim ismli o‘g‘il va Rohima ismli qiz farzandlar ko‘radi.

Asardagi Ya’qub mehribon ota sifatida namoyon bo‘lsa, Bashir va uning onasi obrazlarida shoirning yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlari o‘z ifodasini topgan. Dostondagi salbiy obrazlarni Yahudo boshchiligidagi Ya’qubning katta o‘g‘illari tashkil etadi.

Molik tojir esa savdogarlarning tipik obrazidir. Asarda ramziylik xususiyati kuchli, qaysidir ma’noda asosiy o‘rinni egallaydi, deb aytish ham mumkin. Dostonning biz “Hazora nusxasi” bilan chog‘ishtirib o‘rganayotgan 1959-yilgi nashr matnida molik Yusuf uchun Tengri tomonidan yuborilgan bir panoh deya tasvirlangan:

Og‘olarikim solib erdi bachoh,
Yetti o‘shal moliki tojir panoh.[37]

Undagi alohida epizodlar ilohiy ma’rifat ifodasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Jumladan, taqdiri ilohiyning barhaq ekanligi, yaxshiliksiz yomonlik va yomonliksiz yaxshilikning bo‘lmasligi, tangri suygan bandalarini azobda sinashi haqidagi va boshqa bir qator aqidalar o‘zining go‘zal, ta’sirli va eng muhimi hayotiy ifodasini topgan.

Yusuf zindonga tushgach, Zulayho zindonbondan uni kaltaklashni so‘raydi va o‘zi eshik oldiga borib uning ovozini eshitish bilan sog‘inchi, ishtiyoqi, ishqiga taskin beradi. Zero, Zulayho ozodlikda bo‘lsa-da, Yusufdan o‘n chandon ortiq azoblanayotgan edi. “Hazora nusxasi”da ushbu voqelikning davomida Zulayxo tomonidan zindon xoziniga Yusufga zarar bermasligi haqida xabar yuborgoni tasviri ham uchraydi.

خازن زندانغه چو یتی خبر
یعنی که یوسفقه یتورما ضرر

Xozini zindong‘a chu yetti xabar,
Ya’niki Yusufga yeturma zarar.[24ᵇ]

Yusuf akalarining nodonligi, xiyonati, vahshiyligini kechiradi. Chunki uning talqini bo‘yicha qavmini qahatchilikda qirilib ketishdan saqlab qolishi uchun uning Misrga borishi shart edi. Demak uning Misrga sotilishi ilohiy taqdir. Asarninng sujet boshida ko‘rilgan tush ijobati bilan yakun topishi ham ramziylikning o‘ziga xos namunasidir. Asarda bir qator ikkinchi darajali va epizodik obrazlar ham mavjud bo‘lib, ular ham doston badiiyatida munosib o‘ringa ega.

Ya’qub (a.s) oldiga olib kelingan bo‘ri, Yusuf onasining ruhi kabi to‘qima timsollar shular jumlasidan bo‘lib, an’anaviy sujetning badiiy takomili, ta’sirchanligi oshishiga xizmat qilgan. Bu esa shoir Durbekning mahorati qirralaridandir. Dostonningning yetakchi qahramonlari Hazrati Ya’qub, Yusuf va Zulayholar hisoblanadi. Shu bilan birga asar tarkibida to‘qsonga yana ko‘plab nomlar uchraydiki, ular ham dostondagi muayyan g‘oya va maqsadni ravshan ko‘rsatishda hissa qo‘shadi. Dostondagi bu timsollarning voqealar rivojidagi o‘rni birday emas, albatta. Ulardan ayrimlari voqealar rivojida bir necha marta tilga olinsa, ba’zilari muayyan lavhalardagina ishtirok etishadi. Shunday bo‘lishiga qaramay, ularni nazardan chetda qoldirish aslo mumkin emas. Chunki o‘sha nazarga ilinmaydigan qahramonlarsiz ham asarning yaxlitligini tasavvur qilish qiyin. Shu qahramonlar tufayli Ya’qub, Yusuf , Zulayho va boshqa faol timsollar sarguzashti, qiyofasi, ruhiy – ma’naviy olami, fe’l-u atvori, tabiati mukammallik kasb etadi. “Yusuf va Zulayho”da xalq og‘zaki ijodining kuchli ta’siri seziladi. Tush ko‘rish, tushni

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023

ta’birlash, behad go‘zallik, hayvonlarning gapirishi, bir zarb bilan toshni ko‘tarib otish, yig‘laganda giyohlarning unishi, yig‘lay-yig‘lay ko‘zning ko‘r bo‘lishi, farzandining ko‘ylagini ko‘ziga surtishi bilan ko‘r ko‘zning ochilishi kabilarda bularni kuzatamiz.

Shoir Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostoni o‘zbek mumtoz dostonchiligi taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Yusuf (a.s.) qissalarining diniy qissadan badiiy sujet darajasiga ko‘tarilishida munosib o‘ringa ega bo‘ldi. Mazkur sujetning turkiy xalqlar orasida shuhrat qozonishi, xalq kitoblari, qissalarining yuzaga kelishida turtki bo‘ldi. Dostonda o‘z ifodasini topgan diniy, milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar barcha davrlar uchun tarbiya vositasi bo‘la oladi. Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostonida Yusufning akalari tomonidan chohga tashlanishi “Qur’oni karim”dagi singaridir.

“Yusuf va Zulayxo” dostoni nashri va “Hazora nusxasi” qo‘lyozmasini solishtirganimizda ularning biridagi ayrim baytlar ikkinchisida mavjud emasligini ko‘ramiz. Ba’zan esa bunday holatlar yaxlit bir voqeliklar holatida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, “Hazora nusxasi”ning yigirma ikkinchi **یوسف علیه السلام اول شهردین اوتوب نیل دریاسی قراغیندا توشگانی** (Yusuf alayhis-salom ul shahardin o‘tub, Nil daryosi qirog‘inda tushgani) sarlavhali bobida ushbu holat kuzatiladi. Bob tarkibi 38 baytdan iborat bo‘lib, undagi 26 bayt 1959-yilgi nashrda uchramaydi.

Bu bob 1959-yilgi nashrning yigirma uchinchi bobi hisoblanadi. Bob tarkibi 29 baytdan iborat. Bobdagi 17 bayt esa “Hazora nusxasi”da kuzatilmadi.

“Hazora nusxasi”dagi 1959-yildagi nashrda mavjud bo‘lmagan baytda Yusuf (a.s)ning Nil daryosiga borib g‘usul qilishi, u g‘usul qilayotgan paytda hatto oy ham hayo qilib yuzini bulutlar bilan yopgani, Moliki tojir Yusufga shohona libos kiydirib uni Misrga olib kirgani va Yusufga *“Sanga qullug‘ung erur chu farz.”* degani va boshqa 1959-yilgi nashrda uchramaydigan lavhalar mavjud.

Bundan tashqari boblar joylashuvidagi ketma-ketlik ham nusxalarda turlicha tartibda joylashgan. Masalan, **“Hazrati Yusuf alayhissalom Zulayxogo javob aytqoni”** (nashrda 52-bob; Qo‘lyozmada: 51-bob: **“Hazrati Yusuf alayhissalom Zulayxog‘a javob ayg‘oni”**) bobidan keyin voqealar ketma-ketligi ham o‘zgargan. Voqealar rivojining nashrda va Hazora nusxasida turli tartibda berilishi albatta doston sujetiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Maqolada “Yusuf va Zulayxo” dostonining har ikki nashri ham yagona qo‘lyozma asosida amalga oshirilganligini aytib o‘tdik. Ammo matnshunoslikda ma’lum bir asarning nisbatan mukammal, muallif matniga yaqin nusxasini yaratish uchun uning ilmiy-tanqidiy matni yaratiladi. Buning uchun o‘sha asarning fanga ma’lum bo‘lgan barcha nusxalari yig‘ilib ular o‘zaro solishtirilishi kerak. Biz o‘rganayotgan Hazora nusxasida doston nashrlarida uchramaydigan bob va baytlarning mavjudligi, tafovutli o‘rinlarning ko‘zga tashlanishi va unda muallif nomiga ishora qiluvchi misraning keltirilishi uning mazkur ilmiy-tanqidiy matnni yaratishda tayanch nusxa bo‘la olish ehtimolini oshiradi.